

Farg'ona viloyatida demografik holat

2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 629-son qaroriga muvofiq, **aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar** tayyorlanishi belgilangan.

Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilinganidan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi. Shu munosabat bilan **2026-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlar** Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi.

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari.

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-iyul holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni **4 254,2** ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,8** foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **41,8** ming nafarni, vafot etganlar **9,3** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **32,5** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga ko'chib kelganlar soni **10 671** kishini va viloyatimizdan ko'chib ketganlar soni **12 047** kishini, qayd etilgan nikohlar **9,8** mingtani, nikohdan ajralishlar **2,7** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

4 254,2 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

41,8 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

9,3 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar

10 671 *kishi*

Ko'chib ketganlar

12 047 *kishi*

Nikohlar soni

9,8 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

2,7 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni

Farg'ona viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra **4 254,2** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **73,2** ming kishiga yoki **101,7** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **2 411,2** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **56,7 %**), qishloq joylarda esa **1 843,0** ming kishi (**43,3%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **2 106,6** ming kishini (**49,5 %**), erkaklar esa **2 147,6** ming kishini (**50,5 %**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	4 181,0	4 254,2	101,8
Farg'ona shahri	331,8	337,6	101,7
Qo'qon shahri	316,4	322,1	101,8
Quvasoy shahri	104,0	105,6	101,5
Marg'ilon shahri	259,8	263,6	101,5
tumanlar:			
Oltiariq	234,8	238,9	101,7
Qo'shtepa	215,5	219,7	101,9
Bag'dod	240,5	245,0	101,9
Buvayda	255,4	260,4	102,0
Beshariq	248,8	252,6	101,5
Quva	282,9	287,1	101,5
Uchko'prik	249,5	254,3	101,9
Rishton	222,9	226,8	101,7
So'x	87,0	89,7	103,1
Toshloq	223,9	228,0	101,8
O'zbekiston	242,9	246,3	101,4
Farg'ona t.	228,1	232,1	101,8
Dang'ara	182,7	186,0	101,8
Furqat	131,0	133,1	101,6
Yozyovon	123,1	125,3	101,8

Farg'ona viloyatida 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha **630,0** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **10,8** kishiga ortgan (2025-yil 1-iyul holatiga **1 kv km 619,2** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv km ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Farg'ona viloyatida 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **41,8** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **19,9** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **4,2** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **9,3** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,4** ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **41,8** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **21,6** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,7%**), qiz bolalar soni **20,2** ming kishini (**48,3%**) va shahar joylarida **22,0** ming kishini (**52,6%**), qishloq joylarida **19,8** ming kishini (**47,4%**) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **9,3** ming kishini, shundan erkaklar **5,2** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,9%**), ayollar **4,1** ming kishini (**44,1%**) va shahar joylarida **5,2** ming kishini (**55,9%**), qishloq joylarida **4,1** ming kishini (**44,1%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Farg'ona viloyatida 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **9,8** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan.

Nikohdan ajralishlar soni **2,7** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **9,8** ming birlikni, shundan shahar joylarida **5,3** ming birlikni (**54,1%**), qishloq joylarida **4,5** ming birlikni (**45,9%**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **2,7** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,6** ming birlikni (**59,3%**), qishloq joylarida **1,1** ming birlikni (**40,7%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **10 671** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **10 656** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **15** kishini tashkil qildi.

Ko'chib ketganlar jami soni **12 047** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **12 019** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **28** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Farg'ona viloyati	10 671	10 656	15	12 047	12 019	28
Farg'ona shahri	2 837	2 835	2	2 097	2 085	12
Qo'qon shahri	1 652	1 652	-	1 392	1 390	2
Quvasoy shahri	313	313	-	304	301	3
Marg'ilon shahri	674	673	1	1 067	1067	-
tumanlar:						
Oltiariq	249	249	-	495	495	-
Qo'shtepa	489	489	-	582	582	-
Bag'dod	230	230	-	398	398	-
Buvayda	221	221	-	362	357	5
Beshariq	192	192	-	539	539	-
Quva	254	251	3	544	544	-
Uchko'prik	349	349	-	524	522	2
Rishton	273	273	-	411	410	1
So'x	692	692	-	154	154	-
Toshloq	385	385	-	490	490	-
O'zbekiston	397	397	-	847	847	-
Farg'ona t.	741	735	6	745	742	3
Dang'ara	340	340	-	542	542	-
Furqat	273	270	3	375	375	-
Yozyovon	110	110	-	179	179	-

Viloyatga ko'chib kelganlar va viloyatdan ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

L.Golovanova
73 241-97-74 (4070)

Manzil:

